



mohirdev

Prompt 101 yohud Sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish qo'llanmasi

Sun'iy intellekt endi kelajak haqida xavotirga soladigan kinolar qahramoni emas, u allaqachon kundalik hayotimizda. Kinolar solgan qo'rquvdan farqli undan qochish yoki qo'rqish emas, samarali foydalanish lozim. Shu maqsad bilan biz – Mohirdev jamoasi ushbu qo'llanmani yaratdik. Qo'llanmani o'rganib chiqqaningizdan keyin ishonchli "do'stlaringiz" qatoriga SI ham qo'shilishiga ishonamiz.

Qo'llanma haqida

Bu qo'llanmada sizni qiziqtirgan muammo yoki masalaga to'g'ri, obyektiv javob olish uchun qanday promptlar berish kerakligi o'rgatilgan. Qo'llanma AyTiga qiziqib kelayotgan, mustaqil o'rganishni boshlagan yoki allaqachon kurslar yordamida kasb o'rganayotganlar uchun, ayniqsa, foydalidir.

💡 **Prompt bu – ChatGPT, Gemini kabi SI dasturlaridan javob yoki natija olish uchun beriladigan buyruq, savol.**

Qanday foydalanish kerak?

Qo'llanma 3 qismdan iborat. 3 ta qism AyTiga qiziquvchi 3 xil shaxsni bildiradi. Qaysi shaxs o'zingizni ko'proq eslatsa, o'sha qismda o'qiy boshlashingiz mumkin.

Quyidagilar qat'iy chegaralar emas, balki siz SIga ehtiyoj sezishingiz mumkin bo'lgan bo'lgan **bosqichlar**. Shu sabab biz qo'llanmani bir chetdan, oxirigacha o'qishni tavsiya etamiz. Sababi bugun Yangi bo'lsangiz, balki, ertaga Mohirdevchiga aylanarsiz):

1. **Yangi boshlovchilar** AyTiga endi qiziqayotgan, nimadan boshlashni, qaysi kasbni tanlashni bilmay ikkilanayotganlar.
2. **"Men o'zim"chilar** o'quv markazi-yu pulli kurslardan voz kechib, shuncha resurs turganda pul to'lab o'tiramanmi, deydiganlar.
3. **Mohirdevchilar** Mohirdev kurslaridan birini o'qishni allaqachon boshlab, SI dan yordamchi va hamroh sifatida foydalanayotganlar.

Yangi boshlovchilar

SI – texnologiyalar olamiga endi kirib kelayotganlar uchun ajoyib qurol. Xoh ChatGPT, xoh Gemini, har ikkisining yordami bilan istak va rejalaringsizga anqlik kiritib olishingiz mumkin.

SI – bu sizning suhbatdoshingiz. Prompt esa beradigan savolingiz yoki buyrug'ingiz. Savol va topshiriq qanchalik aniq bo'lsa, SI shuncha to'g'ri hamda to'liq javob beradi. Bunda quyidagi 4 ta asosiy jihatga e'tibor qarating:

- **Rol bering:** SI sizga kim bo'lib, qaysi roldan javob qaytarsin? Dasturchi, dizayner, menejer, 15 yoshli bola va hokazo.
- **Kontekst bering:** Siz xohlagan vazifani bajarishidan oldin SI nimalarni inobatga olishi kerak? Balki, birinchi loyihangizni yaratayotgandirsiz yoki ko'p narsani o'qigan bo'lsangiz ham, qo'llashda qiynalayotgandirsiz?
- **Vazifa bering:** Gemini qanday vazifani bajarsin? Tushuntirsinmi, solishtirsinmi, ko'rsatsinmi? Bunda gap tarkibida doim fe'l qatnashishi kerak.
- **Javob shaklini aniqlashtiring:** Javobni qanday ko'rinishda chiqarsin? Jadval ko'rinishida, raqamlarda, rus tilida?

Yaxshi prompt

✓ Sen tajribali dasturchisan, men esa AyTiga endi qiziqib kelayotgan o'quvchiman, yoshim 18 da va ilgari hech qanday dasturlash tilini o'rganmaganman. Iltimos, HTML va CSS nimaligini maktab o'quvchisiga tushuntirgandek tushuntir. Ikkalasi o'rtasidagi farqni jadval qilib ko'rsatib ber.

Yomon prompt

✗ HTML va CSS nima? Ikkalasining nima farqi bor?

Yaxshi prompt

✓ Men matematikani yaxshi ko'raman, maktab paytida fan olimpiadalarida qatnashganman, hozir AyTiga qiziqyapman. Menga AyTida anchadan beri tajribasi bor odam sifatida 3 ta sohani tavsiya qil, har birining plyus va minuslarini jadval ko'rinishida chiqarib ber. Tushuntirishda atamalar ishlatma.

Yomon prompt

✗ AyTiga qiziqyapman, qaysi sohani o'rgansam bo'ladi?

Har bir promptingizda hamma sanalgan jihatlarni qo'llashingiz shart emas, lekin qancha detallar ko'p va so'rov aniq bo'lsa, javob shuncha mukammal chiqadi.

Qo'shimcha maslahatlar

- **Tabiiy yozing.** Do'stingizga yozayotgandek tasavvur qiling. Ammo jummalarni to'liq, tushunarli, xatosiz tuzishga harakat qiling.
- **Aniq buyruqlar bering.** Nimani xohlaysiz — tushuntirishinimi, tahlil qilib berishinimi yoki kodmi — shuni aniq ayting. Iloji boricha ko'proq kontekst bering.
- **Qisqa yozing.** Promptingizni murakkab va chalkash qilib yubormang. Oddiy, lekin to'liq jummalardan foydalaning.
- **Takror urinib ko'ring.** Agar birinchi javob sizni qoniqtirmasa, promptni biroz o'zgartirib yana yozing. Bu normal holat — eng yaxshi natijalar qayta-qayta urinishlar orqali keladi.
- **Suhbatga aylantiring.** SI bilan suhbatlashing. Har bir promptingiz bilan so'rovlaringizni aniqlashtirib boring.

SI sizga tavsiyalar berishi mumkin, ammo baribir sinab ko'rmaguningizcha aniq bilolmaysiz, soha sizga mos keladimi yoki yo'q. Mohirdev platformasida ["Ilk qadam" kursi](https://mohirdev.uz/kurslar/ilk-qadam-new/) orqali 7 ta kasbni sinab ko'rib, qaysi biri yoqsa, shuni o'rganishni boshlang. Kurs bepul. Havola orqali o'ting <https://mohirdev.uz/kurslar/ilk-qadam-new/>

"Men o'zim"chilar

Ko'pchilik yetarlicha pul to'plashini kutib o'tirganda siz bor imkoniyatlardan maksimal foydalanishni tanlagansiz va bu tahsinga loyiq. Aslida SI to'laqonli mukammal ta'lim o'rnini bosa olmasa-da, siz uchun kuchli tajribaga ega yo'l boshchi bo'lib bera oladi. Faqat to'g'ri prompt kiritish zarur.

Prompt yozishdan oldin o'zingizga bir nechta savol bering:

1 Nima o'rganmoqchiman?

2 Hozirgi bilimim qanaqa?

3 Qanday o'rgansam, ko'nikmani tez egallayman?

So'ng prompt yozishga kirishing.

Quyida sizga kuchli prompt shablonini beramiz, qavs ichidagi gaplarni o'zingizga moslab yozib olasiz.

1 O'quv rejasi uchun prompt

Men AyTini mustaqil o'rganyapman. Kuniga taxminan [haqiqatda ajrata oladigan vaqtingizni yozing] soat vaqt ajrata olaman. Menga [tugatish uchun muddat belgilang] davomida o'z bilimimni oshirish uchun [sohani yozing: React, Python] **o'quv rejasi** tuzib ber.

2 Bilimni tekshirish uchun prompt

Men [qanchadan beri shug'ullanyapsiz, davrni yozing] dan beri [qaysi sohani yoki qaysi bilimni o'rganyapsiz] ni mustaqil o'rganib kelyapman. Asosan [o'rgangan manbalaringizni kiriting] dan o'rganganman.

- Bilimimni tekshirib ko'rish uchun 5 ta sinov vazifasi tuzib ber.
- Men ularni bajarib yuborganimda bilimimni bahola.
- Kamchiliklarimni ko'rsat va ularni qoplashim uchun tavsiyalar ber.

3 Keng qamrovli o'quv rejasi uchun prompt

Sen ancha yillik tajribaga ega [kasb nomini yozing: frontendchi, bekendchi, data analitik] san. Men ham [muddat belgilang] vaqt ichida shu kasbni egallamoqchiman. Hozir bu kasbga taalluqli [egallagan bilimlaringizni sanang] ni bilaman. Haftasiga [o'rganishga ajrata oladigan vaqtingizni aniqlang] soat vaqt ajrata olaman. Asosan tunda o'qiyman. Hayotiy misollar bilan yaxshi tushunaman, o'zim sinab ko'rsam, yaxshi eslab qolaman.

- Mana shularga asoslanib o'quv rejasi tuzib ber.
- Uni jadval shaklida tayyorla.
- Jadvalda mavzu nomi, nimalarni o'rganishim kerakligi, mustahkamlash bo'yicha maslahatlar bo'lsin.

Bu promptlar bergan natijadan qoniqib, SI o'zi qanday ishlashi, qanday yaratilishiga qiziqib ketsangiz, uzoq izlanmay, Mohirdev'dagi "[Data sayns va Sun'iy intellekt](#)" kursini o'qing.

Mohirdevchilar

Qat'iyat va ishtiyoq bilan allaqachon Mohirdev kurslaridan birida o'qishni boshlagan bo'lsangiz, sizga aytar gapimiz bor. Barakalla!

Shunday bo'lsa ham, o'qish oson emas. Tushunmay qolganingizda yo qiynalganingizda sizga yordam beruvchi mentorlarimiz bo'lsa ham, bilamiz, har doim ham savol berishga jur'at qila olmaysiz. Ahmoqona savol berib qo'ysamchi, degan qo'rquv hammamizda uyg'onib turadi. Yechimi esa aynan SI. U bilan savol-javob uyushtirishingiz, murakkab tushunchalarni soddalashtirib berishni, intizomni saqlashda yordam so'rashingiz mumkin.

Quyida siz duch kelishingiz mumkin bo'lgan ba'zi holatlar uchun prompt namunalarini beramiz. Nusxalab, qavsga olingan qismlarni o'zingizga moslab oling.



Murakkab tushunchalarni soddalashtirish

Sen mening [soha nomini yozing] bo'yicha o'qituvchimsan. Men [o'rganayotgan mavzuingizni yozing] o'rganyapman. Lekin u yerdagi [tushunishga qiynalayotgan mavzuingizni yozing]. Menga [tushuncha, mavzu, atamani yozing] ni hayotiy misol bilan, maktab o'quvchisiga o'rgatgandek tushuntirib ber.



Kodni tahlil qilish va xatoni topish

Men [kurs nomini yoki mavzuni yozing] darsida kod yozdim. Mana kod: [kodingizni nusxalab, qo'ying]. Xatoni topishga yordam ber va nima noto'g'ri ketayotganini tushuntir.



Loyiha uchun g'oya olish

Men [o'rganayotgan mavzuingizni yozing, masalan, React] ni o'rganyapman. [Biladigan, o'rganib bo'lgan narsalaringizni yozing] ni bilaman. Menga oson, o'rtacha va qiyin darajadagi 3 ta loyiha g'oyasini ber. Unda men nima qilishim kerakligini, loyiha talablarini, tekshirib olish yo'llarini ko'rsat.



Mustahkamlash uchun testlar

Men [o'rganayotgan mavzuingizni yozing, masalan, React] ni o'rganyapman. [Biladigan, o'rganib bo'lgan narsalaringizni yozing] ni bilaman. Bilimimni mustahkamlashim uchun test tuzib ber. Variantlari soni 3 tadan oshmasin. Qiyinlik darajasi har xil bo'lsin.

Yana tavsiyalar

- **Takrorlang – birinchi javobdayoq to'xtamang.** Birinchi so'raganingizda siz kutgan javob chiqmadimi, gapni boshqacharoq qilib qayta tuzing-da, yana bir marta so'rang.
- **Gapni aylantirmang – nima xohlayotganingizni aniq yozing.** Qancha ko'p faktlar, ma'lumotlar bersangiz, javob ham shunchalik aniqroq chiqadi. Rollar, cheklovlar va javob formatini aniqlashtiring. Natija haqida oldindan ayting: uzunmi, qisqami, soddami, murakkabmi.
- **Bo'lib yozing – bitta katta prompt o'rniga bir necha qisqa topshiriq bering.** Hamma talablaringizni bitta promptda so'rashingiz shart emas. Agar bir nechta so'rovlaringiz bo'lsa, har birini maydalab so'rang: avval bitta savolingizga javob oling, keyin boshqasiga o'ting.
- **Chegara qo'ying – matn hajmi, variantlar, belgilar sonini ayting.** Bu natijani yana ham aniqroq qiladi. Masalan, *javobingda 3 ta isbot keltir, mavzuni 2 ta hayotiy misol bilan tushuntir.*
- **Kreativ bo'ling – rollardan foydalaning, tasavvurni ishga soling.** Turli rollar, pozitsiyalardan turib fikr bildirishini so'rang. Masalan, loyihani bajarib, uni o'qituvchi, ish beruvchi, hamkasb rollaridan turib baholab, ishni yaxshilash uchun tavsiyalar berishini ayting.

Yakuniy maslahatlar

Sun'iy intellekt — javob beruvchi emas, suhbatdosh.

Yaxshi prompt bu — savol berishni bilish san'ati

Qo'llanma foydali bo'ldi deb umid qilamiz. Siz endi to'g'ri prompt yozishni bilasiz. Ammo promptlar bilan cheklanmay, ChatGPT va Gemini kabi SI'larni chuqurroq o'rganishni istasangiz, mana tavsiya – [Prompt Engineering kursini o'qing.](#)



Savol bering

Aniq va maqsadli savollar bilan SI imkoniyatlaridan maksimal foydalaning



Suhbatlashing

SI bilan muloqotni davom ettiring, javoblarni aniqlashtirib boring



O'rganing

Har bir muloqotdan yangi bilim va ko'nikmalar oling



Qo'llang

Olgan bilimlaringizni amalda sinab ko'ring va natijalarni baholang